
№3 2026

ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№3 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР
Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич
доктор философии (PhD) по психологическим наукам

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ
Реджеп Узюрек - доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Е.Е. - доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Н.Ю. - кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Б.С. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Г.Н. - доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Б.Б. - доктор педагогических наук, профессор
Филиппова О.Г. - доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Мирзаева Ф.О. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев М.М. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Умарова Н.Ш. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Н.З. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Абдуллаева Д.У. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Н.Б. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Джабборов Х.Х. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов М.Р. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева С.М. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева М.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов З.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбанбоев А.Н. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Г.М. - доктор исторических наук, профессор
Давлатова С.Т. - доктор исторических наук, профессор
Курбанова М.Б. - кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Б. - доктор философских наук, профессор
Махмудова Д.А. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Юлдашев С.Р. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Д.Б. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Е.Г. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Джексембаева Г.С. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Жалилов Н.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов А.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова М.М. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Халилова Р.Р. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Ш.У. - доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Ш.Ф. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Ж.Ш. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Ф.Х. - кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

EDITOR-IN-CHIEF
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences

EDITORIAL BOARD
Rejep Uzyurek - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Ye.E. - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina N.Yu. - Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva B.S. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Ibragimova G.N. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov B.B. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova O.G. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Mirzaeva F.O. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Bafaev M.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Umarova N.Sh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Ismoilova N.Z. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Abdullaeva D.U. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Atabayva N.B. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Jabborov Kh. Kh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Akramov M.R. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Tuychieva S.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Gadoeva M.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Rasulov Z.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Qurbonboev A.N. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Tanieva G.M. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova S.T. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Kurbonova M.B. - Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev B. - Doctor of Philosophy Sciences, Professor
Makhmudova D.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Yuldashev S.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Botirova D.B. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Alimova Ye.G. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Dzheksembayeva G.S. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences (Kazakhstan)
Jalilov N.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Vahobov A.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Raxmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Khalilova R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Bobojonov Sh.U. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate Professor
Sharipov Sh.F. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Butayev J.Sh. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Bobojonova F.X. - Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Managing Editor
Xayitov Xayotjon Xikmat ugli

SHAXSDA IMPOSTER SINDROMINING INTROVERSIYA, EKSTROVERSIYA, NEVROTIZM VA IJTIMOIY TAQQOSLASH BILAN BOG‘LIQLIGI

Yuldasheva Nilufarxon Sherqo‘zi qizi
Renessans ta’lim universiteti
Pedagogik ta’lim va psixologiya kafedrasi
v.b dotsenti, PhD
e-mail: nilukhanscience@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsda imposter sindromining introversiya, ekstroversiya, nevrotizm hamda o‘zini boshqalar bilan taqqoslash darajasi bilan o‘zaro aloqadorligi empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda 1605 nafar respondent ishtirok etgan bo‘lib, ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik korrelyatsion tahlil asosida aniqlangan. Natijalarga ko‘ra, imposter sindromi introversiya bilan manfiy, ekstroversiya, nevrotizm va ijtimoiy taqqoslash darajasi bilan esa musbat bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlangan. Ayniqsa, imposter sindromi bilan shaxsning o‘zini boshqalar bilan taqqoslash darajasi o‘rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya mavjudligi qayd etilgan. Ushbu holat shaxsning ijtimoiy baholanishga sezgirligi, o‘z yutuqlarini yetarli darajada qadrlamasligi hamda o‘z kompetentligiga nisbatan shubha bilan qarashi imposter sindromining kuchayishiga ta’sir etishini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari imposter sindromining shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq mexanizmlarini yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: imposter sindromi, introversiya, ekstroversiya, nevrotizm, ijtimoiy taqqoslash, shaxs xususiyatlari, korrelyatsion tahlil, psixologik holat, o‘zini baholash, kompetentlik, ijtimoiy baholanish, shaxs psixologiyasi.

ВЗАИМОСВЯЗЬ СИНДРОМА САМОЗВАНЦА С ИНТРОВЕРСИЕЙ, ЭКСТРАВЕРСИЕЙ, НЕЙРОТИЗМОМ И СОЦИАЛЬНЫМ СРАВНЕНИЕМ У ЛИЧНОСТИ

Аннотация. В данной статье эмпирически анализируется взаимосвязь синдрома самозванца с интроверсией, экстраверсией, невротизмом и уровнем социального сравнения личности. В исследовании приняли участие 1605 респондентов, а взаимосвязи между изучаемыми показателями были определены с использованием корреляционного анализа. Согласно полученным результатам, синдром самозванца имеет отрицательную связь с интроверсией и положительную связь с экстраверсией, невротизмом и

уровнем социального сравнения. Особо значимая положительная корреляция была выявлена между синдромом самозванца и склонностью личности сравнивать себя с другими. Это свидетельствует о том, что повышенная чувствительность к социальной оценке, недооценка собственных достижений и сомнение в собственной компетентности способствуют усилению проявлений синдрома самозванца. Полученные результаты позволяют глубже понять психологические механизмы, лежащие в основе проявления синдрома самозванца в структуре личностных особенностей.

Ключевые слова: синдром самозванца, интроверсия, экстраверсия, невротизм, социальное сравнение, личностные особенности, корреляционный анализ, психологическое состояние, самооценка, компетентность, социальная оценка, психология личности.

THE RELATIONSHIP OF IMPOSTER SYNDROME WITH INTROVERSION, EXTRAVERSION, NEUROTICISM, AND SOCIAL COMPARISON IN PERSONALITY

Annotation. This article empirically examines the relationship between impostor syndrome and introversion, extraversion, neuroticism, and the level of social comparison. The study involved 1,605 respondents, and the relationships among the variables were identified using correlation analysis. The findings revealed that impostor syndrome was negatively associated with introversion and positively associated with extraversion, neuroticism, and the level of social comparison. In particular, a strong positive correlation was found between impostor syndrome and individuals' tendency to compare themselves with others. These findings suggest that heightened sensitivity to social evaluation, underestimation of one's own achievements, and doubts about one's competence contribute to stronger manifestations of impostor syndrome. The results provide a deeper understanding of the psychological mechanisms underlying impostor syndrome and its relationship with personality traits.

Keywords: impostor syndrome, introversion, extraversion, neuroticism, social comparison, personality traits, correlation analysis, psychological state, self-esteem, competence, social evaluation, personality psychology.

KIRISH

Bugungi kunda shaxsning o‘z imkoniyatlarini baholashi, muvaffaqiyatga munosabati, ijtimoiy muhitdagi o‘rni va o‘zini boshqalar bilan taqqoslash xususiyatlari psixologiya fanida dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda raqobatning kuchayishi, ijtimoiy

baholanishga bo‘lgan sezgirlikning ortishi, shaxsiy yutuqlarni doimiy ravishda boshqalarning natijalari bilan solishtirish tendensiyasi insonning o‘ziga nisbatan ishonchi, emotsional barqarorligi va psixologik farovonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda shaxs o‘z muvaffaqiyatlarini yetarli darajada qadrlamasligi, erishilgan natijalarni tashqi omillar, tasodif yoki boshqalarning yordami bilan izohlashi, o‘zini esa yetarlicha bilimli va kompetent emas deb his qilishi mumkin. Mazkur holat psixologik adabiyotlarda “imposter sindromi” tushunchasi orqali izohlanadi.

Imposter sindromi shaxsning real yutuqlari mavjud bo‘lishiga qaramay, o‘z muvaffaqiyatlarini ichki qobiliyat va salohiyat natijasi sifatida qabul qila olmasligi, o‘zini “yetarlicha munosib emas” deb his qilishi hamda atrofdagilar tomonidan fosh etilishidan xavotirlanishi bilan tavsiflanadi. Ushbu sindrom shaxsda o‘ziga nisbatan ishonchsizlik, ichki zo‘riqish, xavotir, o‘zini doimiy nazorat qilish, haddan tashqari mas’uliyatni his etish va ijtimoiy baholanishdan qo‘rqish kabi psixologik holatlar bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, yuqori natijalarga erishgan, biroq o‘z yutuqlarini ichki jihatdan qabul qilishda qiyinchilik sezadigan shaxslarda imposter sindromi kuchliroq ifodalanadi.

Shaxs psixologik xususiyatlari nuqtayi nazaridan imposter sindromining introversiya, ekstroversiya va nevrotizm bilan bog‘liqligini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Introversiya shaxsning ichki kechinmalar, mustaqil fikrlash va individual faoliyatga ko‘proq yo‘naltirilganligini ifodalasa, ekstroversiya ijtimoiy faollik, muloqotga ochiqlik va tashqi muhit bilan faol aloqadorlikni bildiradi. Nevrotizm esa emotsional beqarorlik, xavotirga moyillik, stressga sezuvchanlik va salbiy kechinmalarni kuchliroq boshdan kechirish bilan tavsiflanadi. Ushbu xususiyatlar imposter sindromining shakllanishi va namoyon bo‘lishida turlicha psixologik mexanizmlar orqali ishtirok etishi mumkin.

Shuningdek, shaxsning o‘zini boshqalar bilan taqqoslash darajasi imposter sindromi bilan chambarchas bog‘liq psixologik omillardan biridir. Inson o‘z yutuqlari, imkoniyatlari, bilim va kompetensiyasini boshqalarning natijalari bilan solishtirganda, ko‘pincha o‘zini past baholash, muvaffaqiyatlarini inkor etish yoki o‘z salohiyatiga shubha bilan qarash holatlari yuzaga keladi. Ayniqsa, ijtimoiy taqqoslash salbiy yo‘nalishda kechganda, shaxs o‘zini boshqalardan kamroq muvaffaqiyatli, kamroq bilimli yoki yetarlicha layoqatli emas deb qabul qilishi mumkin. Bu esa imposter sindromining kuchayishiga zamin yaratadi.

Mazkur tadqiqotda imposter sindromining introversiya, ekstroversiya, nevrotizm hamda shaxsning boshqalar bilan o‘zini taqqoslash darajasi bilan o‘zaro aloqadorligi empirik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, imposter sindromi shaxsning ayrim individual-psixologik xususiyatlari bilan

statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlikka ega. Xususan, introversiya bilan manfiy, ekstroversiya, nevrotizm va ijtimoiy taqqoslash darajasi bilan esa musbat korrelyatsion bog‘liqlik aniqlangan. Bu esa imposter sindromini faqat shaxsning o‘ziga nisbatan ishonchsizligi bilan emas, balki uning ijtimoiy muhitni idrok etishi, boshqalar bilan munosabatga kirishishi, emotsional barqarorligi va o‘zini baholash mexanizmlari bilan ham bog‘liq murakkab psixologik hodisa sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, imposter sindromini shaxs tipologik xususiyatlari, nevrotik kechinmalar va ijtimoiy taqqoslash jarayonlari bilan bog‘liq holda tadqiq etish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Chunki mazkur sindromning psixologik omillarini aniqlash shaxsda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, ijtimoiy baholanishga nisbatan sog‘lom munosabatni shakllantirish, o‘z yutuqlarini adekvat qabul qilish hamda psixokorreksion va psixoprofilaktik ishlarni samarali tashkil etish imkonini beradi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Imposter sindromi muammosi psixologiya fanida dastlab klinik kuzatuvlar asosida shakllangan bo‘lib, mazkur tushuncha P. Klans va S. Ayms tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Ularning 1978-yilda chop etilgan “The Impostor Phenomenon in High Achieving Women: Dynamics and Therapeutic Intervention” nomli tadqiqotida yuqori natijalarga erishgan ayollarda o‘z muvaffaqiyatlarini shaxsiy qobiliyat, bilim va mehnat natijasi sifatida qabul qila olmaslik, aksincha, uni omad, tasodif yoki tashqi omillar bilan izohlash holatlari tahlil qilingan. Mualliflar imposter fenomenini “intellektual soxtalik hissi” sifatida izohlab, bunday shaxslar real yutuqlarga ega bo‘lishiga qaramay, o‘zlarini yetarlicha kompetent deb his qilmasliklari va atrofdagilar tomonidan “fosh etilish”dan qo‘rqishlarini ta’kidlaganlar.

P. Klans keyingi tadqiqotlarida imposter sindromini o‘lchashga mo‘ljallangan maxsus psixodiagnostik vosita - Clance Impostor Phenomenon Scale metodikasini ishlab chiqdi. Ushbu shkala imposter sindromining asosiy belgilari, ya’ni o‘z muvaffaqiyatini inkor etish, o‘zini “aldovchi” sifatida his qilish, yuqori natijalarga qaramay ichki ishonchsizlikni boshdan kechirish va muvaffaqiyatni tashqi omillar bilan bog‘lash kabi jihatlarni aniqlashga xizmat qiladi. S. Krisman va hamkorlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Clance Impostor Phenomenon Scale metodikasining psixometrik xususiyatlari tekshirilib, mazkur shkala imposter fenomenini aniqlashda ishonchli diagnostik vosita sifatida baholangan.

Imposter sindromini o‘rganishda J. Sakulku va J. Alexander tomonidan amalga oshirilgan nazariy sharh ham muhim o‘rin tutadi. Mualliflar imposter fenomenining kelib chiqishi, uning shaxs psixologik salomatligi, xavotir, depressiv

kechinmalar, o‘zini past baholash va ijtimoiy moslashuv bilan bog‘liq jihatlarini umumlashtirganlar. Ularning fikricha, imposter sindromi shaxsning faqatgina o‘ziga ishonchsizligi bilan emas, balki muvaffaqiyatni qabul qilishdagi qiyinchilik, ijtimoiy baholanishga sezgirlik va ichki tanqidchanlik bilan ham bog‘liq murakkab psixologik hodisadir.

Imposter sindromi va shaxs xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq etishda N. Bernard, S. Dollinger va N. Ramaniahning ishlari alohida ahamiyatga ega. Ular imposter fenomenini “Katta beshlik” shaxs omillari bilan bog‘liq holda o‘rganganlar. Tadqiqotda imposter sindromining, ayniqsa, nevrotizm bilan yaqin aloqadorligi ko‘rsatib berilgan. Nevrotizm darajasi yuqori bo‘lgan shaxslarda xavotir, o‘zidan qoniqmaslik, tanqidga sezgirlik, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish va o‘z kompetentligiga shubha bilan qarash kuchliroq namoyon bo‘lishi mumkin. Bu holat imposter sindromining emotsional beqarorlik va salbiy o‘zini baholash bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

S. Ross, K. Stewart va M. Sinacore tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda imposter fenomeni yutuqqa erishish motivatsiyasi, raqobatga munosabat, xavotir va shaxsning besh omilli modeli bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. Mualliflar imposter sindromiga ega shaxslarda o‘zini himoyalash strategiyalari, muvaffaqiyatsizlikdan qochish, o‘z natijalarini yetarli deb qabul qilmaslik va ichki zo‘riqish kuchli bo‘lishini ta’kidlaydilar. Ularning tadqiqotlari imposter sindromining oddiy o‘ziga ishonchsizlik emas, balki yutuq, baholanish va shaxsiy kompetentlikni idrok etish bilan bog‘liq murakkab psixologik tuzilma ekanligini asoslaydi.

T. Thompson, P. Foreman va F. Martin imposter qo‘rquvlari bilan perfektsionistik xatodan qo‘rqish o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganganlar. Ularning tadqiqotida imposter sindromiga ega shaxslar muvaffaqiyatli bo‘lishiga qaramay, xatoga yo‘l qo‘yishdan kuchli xavotirlanishi, o‘z faoliyati ustidan nazoratni yetarli deb his qilmasligi va ko‘proq salbiy emotsional holatlarni boshdan kechirishi ko‘rsatilgan. Bu natijalar imposter sindromi nevrotizm, xavotir va perfektsionistik talabchanlik bilan o‘zaro bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi.

J. Vergauwe, B. Wille, M. Feys, F. De Fruyt va F. Anseel tomonidan 2015-yilda amalga oshirilgan tadqiqot imposter fenomenining shaxs xususiyatlari va ish faoliyati kontekstidagi ahamiyatini ochib bergan. Mualliflar imposter sindromini “fosh etilishdan qo‘rqish” bilan bog‘liq shaxsga xos tendensiya sifatida tahlil qilganlar. Tadqiqotda imposter sindromi shaxsning individual xususiyatlari, ayniqsa nevrotizm, o‘ziga ishonch, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ishga qoniqish va tashkilotga sodiqlik kabi omillar bilan bog‘liq ekanligi ko‘rsatib berilgan.

Ijtimoiy taqqoslash masalasida L. Festingerning ijtimoiy taqqoslash nazariyasi mazkur mavzuning asosiy nazariy manbalaridan biri hisoblanadi.

Festingerga ko‘ra, insonlar o‘z qobiliyatlari, fikrlari va yutuqlarini baholashda ko‘pincha boshqalar bilan solishtirish mexanizmidan foydalanadilar. Bu jarayon shaxsning o‘zini anglashida muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, doimiy va salbiy yo‘nalishdagi taqqoslash o‘zini past baholash, ichki ishonchsizlik va muvaffaqiyatni yetarli deb qabul qilmaslikka olib kelishi mumkin. Imposter sindromiga ega shaxslar aynan shu jihatdan o‘z yutuqlarini boshqalarning muvaffaqiyatlari bilan solishtirishga moyil bo‘ladilar.

F. Gibbons va B. Buunk tomonidan ishlab chiqilgan Iowa-Netherlands Comparison Orientation Measure metodikasi esa shaxsning ijtimoiy taqqoslashga moyilligini o‘lchashda keng qo‘llaniladi. Ularning tadqiqotlarida ijtimoiy taqqoslashga moyillik individual farq sifatida talqin qilingan bo‘lib, ayrim shaxslar o‘z imkoniyatlari, fikrlari va natijalarini boshqalar bilan solishtirishga nisbatan kuchliroq ehtiyoj sezishi ta’kidlangan. Mazkur yondashuv imposter sindromi bilan ijtimoiy taqqoslash o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

K. Mak, S. Kleitman va M. Abbott tomonidan olib borilgan tizimli sharhda imposter fenomenini o‘lchashga mo‘ljallangan psixodiagnostik shkalalar tahlil qilingan. Mualliflar imposter sindromini baholashda turli metodikalarning psixometrik imkoniyatlarini qiyosiy o‘rganib, bu fenomenni aniq diagnostika qilish uchun ishonchli, valid va nazariy asoslangan o‘lchov vositalaridan foydalanish zarurligini ta’kidlaganlar. Bu tadqiqot imposter sindromi bo‘yicha empirik izlanishlarni metodologik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, imposter sindromi shaxsning o‘ziga munosabati, muvaffaqiyatni qabul qilishi, emotsional barqarorligi, ijtimoiy baholanishga sezgirligi va boshqalar bilan o‘zini taqqoslash darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, Klans va Ayms ushbu fenomenning nazariy asoslarini yaratgan bo‘lsa, Krisman va hamkorlari uni diagnostik jihatdan o‘lchash imkoniyatlarini asoslab bergan. Bernard, Ross, Thompson va Vergauwe tadqiqotlari imposter sindromining nevrotizm, xavotir, perfektsionizm va shaxs tipologik xususiyatlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Festinger, Gibbons va Buunkning ijtimoiy taqqoslash haqidagi qarashlari esa imposter sindromining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini tushuntirishda muhim nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi shaxsda imposter sindromining namoyon bo‘lish darajasi hamda introversiya–ekstroversiya va nevrotizm kabi individual-psixologik xususiyatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni empirik jihatdan aniqlashdan iborat. Tadqiqot korrelyatsion tadqiqot dizayni asosida tashkil etildi.

Ushbu yondashuv o‘rganilayotgan psixologik ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘lanishning yo‘nalishi, kuchi va statistik ahamiyatini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot obyekti sifatida turli yosh davrlaridagi shaxslarning individual-psixologik xususiyatlari belgilandi. Tadqiqot predmetini esa imposter sindromining introversiya–ekstroversiya va nevrotizm ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro aloqadorligi tashkil etdi. Tadqiqotda jami 1052 nafar respondent ishtirok etdi. Ishtirokchilar 15 yoshdan 36 yosh va undan katta yoshgacha bo‘lgan shaxslardan iborat bo‘lib, yosh xususiyatlariga ko‘ra beshta guruhga ajratildi: 15–17 yosh, 18–22 yosh, 23–28 yosh, 28–35 yosh hamda 36 yosh va undan katta respondentlar. Tanlanmani shakllantirishda respondentlarning yoshi, jinsi, ta’lim darajasi va ijtimoiy faoliyat turi kabi demografik ko‘rsatkichlar hisobga olindi.

Respondentlarni tadqiqotga jalb etishda ixtiyoriy ishtirok etish, anonimlik, maxfiylik va olingan ma’lumotlardan faqat ilmiy maqsadlarda foydalanish tamoyillariga amal qilindi. Tadqiqot boshlanishidan oldin ishtirokchilarga tadqiqotning umumiy maqsadi, topshiriqlarni bajarish tartibi va javoblarning maxfiy saqlanishi haqida ma’lumot berildi. Respondentlardan o‘zlariga eng mos bo‘lgan javob variantlarini tanlash hamda savollarga xolis javob berish so‘raldi.

Tadqiqot jarayonida nazariy, psixodiagnostik va matematik-statistik metodlardan foydalanildi. Nazariy metodlar doirasida imposter sindromi, shaxs xususiyatlari, introversiya–ekstroversiya va nevrotizm muammosiga bag‘ishlangan mahalliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, mavzuga oid nazariy konsepsiyalarni umumlashtirish, taqqoslash, tizimlashtirish va ilmiy talqin qilish usullari qo‘llanildi.

Imposter sindromining namoyon bo‘lish darajasini aniqlashda Klans tomonidan ishlab chiqilgan “Imposter fenomeni shkalasi”dan foydalanildi. Mazkur metodika shaxsning o‘z muvaffaqiyatlarini tashqi omillar bilan izohlashi, o‘z qobiliyatlariga shubha bilan qarashi, atrofdagilar tomonidan fosh etilishdan qo‘rqishi va erishilgan natijalarni yetarlicha qadrlamasligi kabi holatlarni baholashga imkon beradi. Metodika orqali respondentlarda imposter sindromining past, o‘rta va yuqori darajada namoyon bo‘lish xususiyatlari aniqlandi.

Shaxsning introversiya–ekstroversiya va nevrotizm xususiyatlarini o‘rganishda G. Ayzenkning shaxs so‘rovnomasidan foydalanildi. Ushbu metodika shaxsning tashqi yoki ichki olamga yo‘nalganligini, ijtimoiy faollik darajasini, muloqotga kirishuvchanligini, hissiy barqarorligi yoki beqarorligini aniqlashga xizmat qiladi. Metodikaning ekstroversiya–introversiya shkalasi respondentning ijtimoiy faolligi, ochiqligi, muloqotga moyilligi yoki aksincha, ichki kechinmalarga yo‘nalganligi haqida ma’lumot beradi. Nevrotizm shkalasi esa shaxsning xavotirga moyilligi, hissiy ta’sirchanligi, kayfiyat o‘zgaruvchanligi, stressga sezgirligi va

emotsional barqarorlik darajasini baholash imkonini yaratadi. So‘rovnomadagi samimiylik shkalasi respondentlar javoblarining ishonchlilik darajasini nazorat qilish maqsadida qo‘llanildi.

Tadqiqot bir necha bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda muammoning nazariy-metodologik asoslari o‘rganilib, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va ilmiy farazi belgilandi. Ikkinchi bosqichda psixodiagnostik metodikalar tanlandi va respondentlarga taqdim etildi. Uchinchi bosqichda olingan natijalar kodlashtirilib, elektron ma’lumotlar bazasiga kiritildi. To‘rtinchi bosqichda natijalar matematik-statistik metodlar yordamida qayta ishlandi, tizimlashtirildi va psixologik jihatdan talqin qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Empirik ma’lumotlarni qayta ishlashda tavsifiy statistika ko‘rsatkichlari, jumladan, arifmetik o‘rtacha qiymat, standart og‘ish, chastota va foiz ko‘rsatkichlaridan foydalanildi. Imposter sindromi bilan introversiya–ekstroversiya va nevrotizm o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash maqsadida Pirsonning korrelyatsiya koeffitsiyenti qo‘llanildi. Korrelyatsion tahlil o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikning musbat yoki manfiy yo‘nalishini, shuningdek, uning kuchini aniqlashga imkon berdi.

Statistik natijalarni baholashda $p<0,05$ darajasi statistik jihatdan ahamiyatli, $p<0,01$ darajasi yuqori darajada ahamiyatli, $p<0,001$ darajasi esa juda yuqori statistik ahamiyatga ega deb qabul qilindi. Korrelyatsiya koeffitsiyentlarini talqin qilishda bog‘lanishning yo‘nalishi bilan bir qatorda uning kuchiga ham e’tibor qaratildi. Bunda koeffitsiyentning 0,10 dan 0,29 gacha bo‘lgan qiymatlari zaif, 0,30 dan 0,49 gacha bo‘lgan qiymatlari o‘rtacha, 0,50 va undan yuqori qiymatlari kuchli bog‘lanish sifatida baholandi.

Olingan natijalarni qayta ishlashda statistik dasturiy ta’minotdan foydalanildi. Dastlab respondentlarning umumiy ko‘rsatkichlari tavsifiy statistika yordamida tahlil qilindi. Keyinchalik imposter sindromi, introversiya–ekstroversiya va nevrotizm ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyatsion munosabatlar hisoblandi. Zarur holatlarda respondentlarning yosh va jins xususiyatlari bo‘yicha guruhlararo farqlar ham qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotning ilmiy faraziga ko‘ra, imposter sindromining namoyon bo‘lishi shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, nevrotizm darajasining ortishi imposter sindromi ko‘rsatkichlarining ham oshishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, introversiya–ekstroversiya xususiyatlari imposter sindromining namoyon bo‘lish darajasi va shakllariga turlicha ta’sir ko‘rsatishi taxmin qilindi.

Tanlangan metodologik yondashuv imposter sindromini alohida psixologik holat sifatida emas, balki shaxsning hissiy barqarorligi, ijtimoiy yo‘nalganligi, o‘ziga munosabati va individual xususiyatlari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan murakkab psixologik fenomen sifatida o‘rganish imkonini berdi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlashda tanlanmaning yetarli hajmi, standartlashtirilgan psixodiagnostik metodikalardan foydalanish, statistik mezonlarning to‘g‘ri tanlanishi hamda empirik ma’lumotlarning tizimli tahlil qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi.

1-jadval

Shaxsda imposter sindromi va introversiya, ekstroversiya, nevrotizm hamda shaxsning boshqalar bilan o‘zini taqqoslash darajasi xususiyatlarining o‘zaro aloqadorligi (n-1605)

Ko‘rsatkichlar	Imposter sindromi
Introversiya	-0,172**
Ekstroversiya	0,225**
Nevrotizm	0,438**
Shaxsning boshqalar bilan o‘zini taqqoslash darajasi	0,593**

Izoh: * - p<0.05; ** - p<0.01

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, imposter sindromi bilan introversiya o‘rtasida manfiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog‘lanish aniqlandi ($r = –0,172$; $p < 0,01$). Bu introversiya darajasi ortishi bilan imposter sindromi ko‘rsatkichlari nisbatan pasayishini anglatadi. Mazkur bog‘lanish kuch jihatidan zaif bo‘lsa-da, shaxsning ichki dunyoga yo‘nalganligi imposter kechinmalarining kamayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ekstroversiya bilan imposter sindromi o‘rtasida esa ijobiy bog‘lanish qayd etildi ($r = 0,225$). Ushbu natija ijtimoiy faollik, tashqi baholarga e’tibor va o‘zini boshqalar bilan taqqoslashga moyillik ortishi imposter sindromining kuchayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Nevrotizm bilan imposter sindromi o‘rtasidagi ijobiy bog‘lanish esa emotsional beqarorlik, xavotir, o‘ziga ishonchsizlik va tanqidga yuqori sezgirlik imposter sindromining namoyon bo‘lishiga ta’sir etishini bildiradi. Nevrotizm darajasi yuqori shaxslar o‘z yutuqlarini qadrsizlantirish va muvaffaqiyatini tasodif bilan izohlashga ko‘proq moyil bo‘lishi mumkin.

Umuman, natijalar imposter sindromining shaxsning ijtimoiy yo‘nalganligi va emotsional barqarorligi bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Biroq aniqlangan

korrelyatsiyalar sabab-oqibat munosabatini emas, balki ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liq holda o‘zgarishini ifodalaydi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari imposter sindromining shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, introversiya bilan imposter sindromi o‘rtasida manfiy bog‘lanish aniqlangan bo‘lsa, ekstroversiya va nevrotizm ko‘rsatkichlari bilan ijobiy bog‘lanish qayd etildi. Bu holat imposter sindromining namoyon bo‘lishida shaxsning ijtimoiy yo‘nalganligi, tashqi baholarga munosabati va emotsional barqarorligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Introversiya darajasi yuqori bo‘lgan shaxslarda imposter sindromi ko‘rsatkichlarining nisbatan past bo‘lishi ularning tashqi baholarga kamroq yo‘nalganligi va ijtimoiy taqqoslashga nisbatan ehtiyojining pastligi bilan izohlanishi mumkin. Ekstroversiya bilan aniqlangan ijobiy bog‘lanish esa ijtimoiy faollik, boshqalarning fikriga e’tibor berish va o‘zini atrofdagilar bilan taqqoslash imposter kechinmalarini kuchaytirishi mumkinligini bildiradi.

Nevrotizm bilan imposter sindromi o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlik emotsional beqarorlik, xavotir, o‘ziga ishonchsizlik va tanqidga yuqori sezgirlik ushbu sindromning namoyon bo‘lishiga ta’sir etishini ko‘rsatadi. Bunday shaxslar o‘z muvaffaqiyatlarini qadrsizlantirish, erishilgan natijalarni tashqi omillar bilan izohlash va o‘z salohiyatiga shubha bilan qarashga ko‘proq moyil bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, imposter sindromini faqatgina o‘ziga ishonchsizlik yoki past o‘z-o‘zini baholash bilan izohlash yetarli emas. Uni shaxsning ijtimoiy faolligi, hissiy ta’sirchanligi, tashqi baholarga qaramligi va o‘z muvaffaqiyatlarini qabul qilish xususiyatlari bilan birgalikda o‘rganish zarur. Shu bois imposter sindromiga moyil shaxslar bilan psixologik ishlashda o‘ziga ishonchni mustahkamlash, emotsional barqarorlikni rivojlantirish, tashqi baholarga qaramlikni kamaytirish va shaxsiy yutuqlarni obyektiv baholash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bravata, D. M., Watts, S. A., Keefer, A. L., Madhusudhan, D. K., Taylor, K. T., Clark, D. M., Nelson, R. S., Cokley, K. O., & Hagg, H. K. (2020). Prevalence, predictors, and treatment of impostor syndrome: A systematic review. Journal of General Internal Medicine, 35(4), 1252–1275. https://doi.org/10.1007/s11606-019-05364-1

2. Clance, P. R. (1985). The impostor phenomenon: Overcoming the fear that haunts your success. Peachtree Publishers.

3. Clance, P. R., & Imes, S. A. (1978). The impostor phenomenon in high-achieving women: Dynamics and therapeutic intervention. Psychotherapy: Theory, Research and Practice, 15(3), 241–247. https://doi.org/10.1037/h0086006

4. Cozzarelli, C., & Major, B. (1990). Exploring the validity of the impostor phenomenon. Journal of Social and Clinical Psychology, 9(4), 401–417. https://doi.org/10.1521/jscp.1990.9.4.401

5. Eysenck, H. J., & Eysenck, S. B. G. (1975). Manual of the Eysenck Personality Questionnaire: Junior and adult. Hodder and Stoughton.

6. Ferrari, J. R., & Thompson, T. (2006). Impostor fears: Links with self-presentational concerns and self-handicapping behaviours. Personality and Individual Differences, 40(2), 341–352. https://doi.org/10.1016/j.paid.2005.07.012

7. King, J. E., & Cooley, E. L. (1995). Achievement orientation and the impostor phenomenon among college students. Contemporary Educational Psychology, 20(3), 304–312. https://doi.org/10.1006/ceps.1995.1019

8. Kolligian, J., Jr., & Sternberg, R. J. (1991). Perceived fraudulence in young adults: Is there an impostor syndrome? Journal of Personality Assessment, 56(2), 308–326. https://doi.org/10.1207/s15327752jpa5602_10

9. Kumar, S., & Jagacinski, C. M. (2006). Impostors have goals too: The impostor phenomenon and its relationship to achievement goal theory. Personality and Individual Differences, 40(1), 147–157. https://doi.org/10.1016/j.paid.2005.05.014

10. Langford, J., & Clance, P. R. (1993). The impostor phenomenon: Recent research findings regarding dynamics, personality and family patterns and their implications for treatment. Psychotherapy: Theory, Research, Practice, Training, 30(3), 495–501. https://doi.org/10.1037/0033-3204.30.3.495

11. Mak, K. K. L., Kleitman, S., & Abbott, M. J. (2019). Impostor phenomenon measurement scales: A systematic review. Frontiers in Psychology, 10, Article 671. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2019.00671

12. McGregor, L. N., Gee, D. E., & Posey, K. E. (2008). I feel like a fraud and it depresses me: The relation between the impostor phenomenon and depression. Social Behavior and Personality: An International Journal, 36(1), 43–48. https://doi.org/10.2224/sbp.2008.36.1.43

13. Ross, S. R., Stewart, J., Mugge, M., & Fultz, B. (2001). The impostor phenomenon, achievement dispositions, and the Five-Factor Model. Personality and Individual Differences, 31(8), 1347–1355. https://doi.org/10.1016/S0191-8869(00)00228-2

14. Ross, S. R., & Krukowski, R. A. (2003). The impostor phenomenon and maladaptive personality: Type and trait characteristics. Personality and Individual Differences, 34(3), 477–484. https://doi.org/10.1016/S0191-8869(02)00067-3

15. Sakulku, J., & Alexander, J. (2011). The impostor phenomenon. International Journal of Behavioral Science, 6(1), 73–92. https://doi.org/10.14456/ijbs.2011.6

16. Thompson, T., Davis, H., & Davidson, J. (1998). Attributional and affective responses of impostors to academic success and failure outcomes. Personality and Individual Differences, 25(2), 381–396. https://doi.org/10.1016/S0191-8869(98)00065-8

O‘SMIR SPORTCHILARNING STRESS HOLATIGA BARQARORLIGI XUSUSIYATLARI **Abdurasulov Rustam Abduraimovich**	**6**
BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY RIVOJLANISHIGA QARATILGAN ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI **Tuychiyeva Saodat Melikuziyevna**	**19**
OLIY TA’LIM MUASSASALARI BITIRUVCHILARIDA SHAXSIY QADRIYATLARNING KASBIY KARYERANI REJALASHTIRISHDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK AHAMIYATI **Xolyigitova Nasiba Xabibullayevna**	**25**
O‘QUVCHILARNING DEMOKRATIK VA AVTORITAR USLUBDAGI O‘QITUVCHILAR SHAXSIGA NISBATAN PSIXOSEMANTIK TASAVVURLARI **Turayeva Dilafruz Rustamboevna**	**32**
NOGIRON FARZANDLI TURLI YOSHDAGI ONALARNING PSIXOLOGIK FAROVONLIGI BILAN DEPRESSIYA, XAVOTIR VA STRESS O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIK **Kasimova Xulkar Atabayevna**	**45**
TURLI YOSH DAVRLARIDA PERFEKTSIONIZM VA PROKRASTINATSIYA XUSUSIYATLARINING O‘ZARO ALOQADORLIGI **Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna**	**52**
SHAXSDA IMPOSTER SINDROMINING INTROVERSIYA, EKSTROVERSIYA, NEVROTIZM VA IJTIMOIY TAQQOSLASH BILAN BOG‘LIQLIGI **Yuldasheva Nilufarxon Sherqo‘zi qizi**	**61**
TALABALARDA OPTIMIZM XUSUSIYATI VA MUAMMONI HAL QILISH QOBILIYATINING RIVOJLANISHIDAGI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR **Ko‘chkinova Zulxumor Shohobiddin qizi**	**73**
TALABALAR IQTISODIY XULQ-ATVORINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI: GENDER TAHLILI **Yuldosheva Gavhar O‘tkirovna**	**82**

PROBLEMS AND NECESSARY CONSIDERATIONS OF ECOLOGICAL AND BIOPHYSICAL EDUCATION **Tuksanova Zilola Izatulloyevna**	**90**
TA'LIM JARAYONIDA TEXNIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH MODELI **Z.F. Amirova**	**95**
XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATI SHAHAR AHOLISI VA MA'MURIY BOSHQARUV TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR **Bo'tayev Jonibek Shodiyevich**	**102**
MAQOM SAN'ATINI O'QITISHDA RAQAMLI PLATFORMALAR VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI **Sunnatillayev Asatillo Sunnatovich**	**108**
O'ZBEK XALQ MAQOLLARI: MILLIY TAFAKKUR VA BADIIY MEROS NAMUNASI **Karimova Muqaddas Abdisamatovna**	**116**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/